

ISMOIL SOMONIY SOMONIYLAR SULOLASINING KELIB CHIQISH TARIXI.

Guliston davlat pedagogika instituti

Dotsenti Tarix fanlar bo'yicha

falsafa doktori (PHD) Mirzaliyev U

Tarix yo'nalishi 33/24 guruh talabasi

Noryigitova S.

Manbalarda ma'lumot berilishicha Somon-xudot Somon nomli bir qishloqning asoschisi bo'lib, bu qishloq Balx viloyati, Samarqand viloyati yoki Termiz viloyatida joylashgan. Somon (saman) ismining kelib chiqishi haqida ham turli fikrlar mavjud. Rivoyatga ko'ra bu so'z "farovonlik" ma'nosini bildirgan. O'rta fors(pahlaviy) tilida saman so'zi "chegara, mintaq" yangi fors tilida esa "tartib, intizom, boylik" ma'nolariga ega.

Somon ismining kelib chiqishini Shaman so'zi bilan bog'lashga ham urinishlar bo'lgan. Beruniyga ko'ra O'rta Osiyoda al-Shamaniya nomli din vakillari bo'lib ular butlarga sig'inganlar, lekin braxmanlarga nafrat bilan qaraganlar. Hind mifologiyasida Saman so'zi "hukmdor" va Yima xudosining ismi sifatida ishlatiladi. Shamanizmdagi Shaman so'zi ham huddi shu so'zdan olingan bo'lib, o'rta asrlarda Hindistonda Saman nomli shahar ham qayd etilgan.[1:12] Somoniylar 865-999 yilda hukmronlik qilgan sulola. Manbalarda Somon-xudotning kelib chiqishi turklardan bo'lganiga ishora qiluvchi bir necha ma'lumotlar mavjud. Lekin ulardan ba'zilar ishonchli deb qabul qilinishi mumkin – Al-Muqaddasiy (X asr) Somon qishlog'i turklari haqidagi ma'lumot, al-Smoniy (XII) ning Balx yaqinidagi Jabbaxon qishlog'i haqidagi ma'lumot va shu ismli shaxsning X-XI asr manbalarida Somoniylarning ajdodi sifatida qayd etilgan.[1:15]

Somoniylarda buddaviylik dini alohida o'rin tutadi. Chunki bunga ishora qiluchi dalillardan biri bu Buxorodagi Somoniylar maqbarasining devorlariga tushirilgan ramzlardir. Bu ramzlar murakkab geometrik shakllardan iborat bo'lib, bir birini ichidagi kvadrat shakllar va ularning o'rtasida doira shaklidan tashkil topgan. Xuddi shunday

ramzlarni ilk o'rta asrlarda Sharqiy Turkistonni eng yirik buddaviy markazlaridan biri bo'lgan Dun Huan g'or majmuasining devoriy suratlaridagi buddaviy rivoyatlarning tasvirlarida ham ko'rish mumkin. Bu ma'lumotlar bizningcha somoniylarning asl kelib chiqishi masalasiga oydinlik kiritishda muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Undan shunday xulosa kelib chiqadiki Somon-xudot islom dinini qabul qilganiga qadar manbalarda ko'rsatilgan zardushtiylik emas balki buddaviylik diniga e'tiqod qilgan. Bu esa islomgacha Somon-xudotning vatani bo'lgan Balx shahrida buddaviylik dini hukmronlik qilgan, degan xulosalarga to'la mos keladi.[1:13,25] Somoniylar davlati o'z davrida Markaziy Osiyoning yirik va qudratli davlatlardan biri bo'lgan. Bu davlar quyidagi hududlarni o'z ichiga oladi.

Movorounnaxr (hozirgi O'zbekiston, Tojikiston, qisman Qirg'izistonning janubi), Xuroson (Eronni shimoliy sharqi, Afg'onistonning shimoli, Turkmanistonning janubi), Xorazm (hozirgi O'zbekistonning g'arbi va Turkmanistonning shimoli) hamda Balx va Afg'onistonning shimoliy hududlari. Bugungi kunda Somoniylar davlatining hududi asosan O'zbekiston, Tojikiston, Afg'oniston, Turkmaniston, Eron va Qozog'istonning ayrim qisimlariga to'g'ri keladi.[2:202] Somoniylar ichki iqtisodiy va moliyaviy siyosatini yuritishda mustaqil bo'lgan bo'lsalarda ularning hukmronligi xalifalar tomonidan ularga berilgan ma'lum huquqlar bilan qat'iy chegaralangan. Somoniylar har yili Abbosiylar xalifalariga barcha soliq va o'lponlarni to'lab belgilangan vaqtda muntazam ravishda Bag'dodga jo'natib turganlar.

Somoniylar hukmronligini boshidan oxirigacha o'zlarini abbosiy xalifalarning sodiq fuqarolari deb hisoblaganlar va amir va mavlo degan kamtarona unvonlarga ega bo'lganlar. Somoniylar hukmronligi davrida (IX-X) asrlar turklar Bag'doddagi Abbosiylar saroyidagi kabi bu sulola hukmronligining boshidan oxirigacha barcha darajadagi boshqaruv ishlarida hamim o'rin egallaganlar. Somoniylar davrida ukarning saroyida ham Xuroson va Movorounnaxrning ularga qarashli bo'gan boshqa shahar va viloyatlarda ham deyarli barcha asosiy mansablarni turklar egallagan. Ularga qarashli viloyatlardagi ko'plab turk hukmdorlari hokimiyatga harbiy xizmat orqali kelgan. Ammo keyinchalik davlat yangi

musilmon-turk sulolasi Qoraxoniylar qo'liga o'tganda ularning ko'pchiligi hech ikkilanmasdan yangi hukmdorlar xizmatiga o'tgan.[1:6,7,8] Somoniylar hukmdorlari ichida nom qozongan Ahmad ibn Asad degan shaxs bo'lgan va uning 7 ta o'g'li bo'lgan: Nasr, Yaqub, Yahyo, Asad, Ismoil, Ishoq, Homid. Bularning ichida Ismoil ibn Ahmadga alohida to'xtatilib o'tamiz.[1:30] U 849-yilda may oyida Farg'onada tug'ilgan. Uning otasi Ahmad 865-yilda vafot etganda Ismoil 14 yosh edi. Ammo ba'zi sabablarga ko'ra akasi Nasr bilan o'rtasida nizo kelib chiqadi. Bunga sabab Nasr ukasini Ismoilni Buxoroga hokim etib tayinlaydi va har yili akasi Nasrga 500 ming dirham miqdorda xiroj to'lovini yuborishi kerak edi. Lekin Ismoil Kelishilgan mablag'ni vaqtida yubormadi. Shundan keyin Nasrni jaxli chiqadi va 888-yilda Buxoroga qo'shin tortadi va ukasi bilan jang qiladi. Bu jangda Ismoil g'olib keladi lekin Ismoil akasiga hurmar va iltefot ko'rsatib uni Samarqandga qaytaradi. Shunday butun Movorounnaxrdagi hokimiyat amalda Ismoilning qo'liga o'tadi. Nasr esa Samarqandda hokim bo'lib qoladi va 4 yildan so'ng 893-yilda vafot etadi.[1:31,32] Ismoil ibn Ahmad Somoniylardan birinchi bo'lib Movorounnaxrda markazlashgan davlat tamoyilida hukmronlik qila boshlaydi. Ismoil Somoniy joriy etgan boshqaruv tamoyillari undan keyin ham 100 yil davomida amal qildi. Ismoil Somoniy qiyosiy maqsadda mashhur Termiz sayyidlarining oilasiga mansub qizga uylangan edi. Natijada uning ajdodlarini tomirida payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) ning qoni oqa boshladi. Bu bilan musulmonlarning ko'z o'ngida Somoniylarning hokimiyati yana ham qonuniy ham sha'riy hisoblanar edi. Ismil ibn Ahmad 907-yil 25-noyabr kuni Buxoro yaqinidagi o'ziga qarashli Zarmon qishlog'ida vafot etdi. Ismoil Somoniyga vafotidan keyin al-Amir al-Moziy, ya'ni "o'tmishdagi amir" degan laqabni berdilar. Ismoil ibn Ahmadning vafotidan keyin hokimiyat uning avlodlariga meros sifatida o'tib ketdi.[1:34]

Tarixchi Nasafiyning yozishicha Ismoil ibn Ahmad fozil amir bo'lgan, boshqaruv ishlarida adolatli, o'zining qo'l ostidagilarga mehribon va rahimdil bo'lgan. Ismoil otasi Ahmadning so'zlaridan hadislar rivoyat qilgan. Abbosiylar hukmronligi davrida keng tarqalgan g'ulomlar yoki mamluklar tuzumlarining kelib chiqishi O'rta Osiyo bilan bog'liq bo'lgan. Islomdan bu yerda "chokar" deb atalagan qo'riqchi qo'shinlar bo'lgan

ularning asosiy vazifasi davlati xo'jayiniga cheksiz sadoqat va vafodorlik bo'lgan. Hatto xo'jayin o'lganda uning chokarlari ham o'zlarini o'ldirib u bilan birga dafin etilgan. Mamluklardan iborat professional qo'shining ta'minoti katta xarajatlar sarflanishini talab qilgan. Chunki g'ulomlarga urush bo'lmasa ham muntazam ravishda maosh to'lab turishi kerak edi.[3:15]

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida shunday yozilgan: Hukmdor qo'shiniga nisbatan saxiy bo'lishi yollangan ozod va erkin odamlarga qullarga nisbatan ko'proq haq to'lashi lozim. Chunki ular hukmdor xizmatiga kirib uning quliga aylanadilar. Ismoil Somoniy va uning avlodlari hukmronlik qilgan davrda (IX-X) asrlar rasmiy til arab tili bo'lib barcha yozishmalar va hujjatlar faqat shu tilda olib borilgan. Somoniylar davrida zarb etilgan barcha tangalardagi yozuvlar arab tilida bo'lgan. Somoniylar va boshqa turk hukmdorlari ularga tobe bo'lgan. Mamlakat mamuriyatida turkiy tilni joriy qilishga harakat qilmaganlar.[1:38] Ular turkiy tilni mavqeyi va ahamiyatini oshirish maqsadida undan hatto saroy tili sifatida ham foydalanmaganlar aksincha saroyi ichida fors tili, shuningdek arab tilidan foydalanilgan. Oradan ko'p vaqt o'tib hukmdorlar o'rtasidagi ixtiloflar, sulolviy nizolar va ichki kurashlar natijasida davlat zaiflasha boshlaydi va 999-yilda Buxoroning Nasr Eloqxon boshchiligida Qoraxoniylar tomonidan zabt etilishi bilan Somoniylar hukmronligi batamom barham topdi.[4:2,3]

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Shamsiddin Kamoliddin Temur Xojao'g'li – "O'zbek davlatchiligi tarixidan": Somoniylar sulolasi (IX-X) asrlar.
2. Bartold V.V – "Turkiston tarixi"
3. Muhammad Narshaxiy – "Buxoro tarixi"
4. Farux Eshboyev – "Somoniylar sulolasining kelib chiqishi"